

**Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi
aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan
Davlat umumta'lim maktabi
o'qituvchilarining "Mahorat maktabi"
tadbiri uchun tayyorlagan
bir soatlik dars ishlanmalari**

Toshkent – 2015

7-sinf Geometriya

MAVZU: "Teng yonli uchburchakning xossalari"

Texnologik xarita

Mavzu	Teng yonli uchburchakning xossalari
Darsning maqsadi	<i>Ta'limiy</i> : teng yonli uchburchakning xossalarini o'rgatish; <i>Rivojlantiruvchi</i> : o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'yin mashqlari orqali fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. <i>Tarbiyaviy</i> : o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatish, ajdodlar merosidan faxrlanish tuyg'usini singdirish.
O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar	<i>Bilimlar</i> : teng yonli uchburchakning xossalarini bilish <i>Ko'nikmalar</i> : teng yonli uchburchak, uning yon tomonlari, asosi va asosidagi burchaklarini chizmada tavsiflash, teng yonli uchburchak xossalaridan foydalanib masalalar yecha olish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<i>Uslub</i> : noan'anaviy, kichik guruhlarda ishlash, o'yinlar metodi individual ishlash; <i>Shakl</i> : amaliy-yozma, og'zaki, jamoa va yakka tartibda ishlash; <i>Nazorat</i> : O'z - o'zini nazorat qila olish, kuzatish, tekshirish; <i>Baholash</i> : dars yakunida o'quvchilarga o'quvchilarning dars davomida yig'ib borgan ballari kompyuter (Avto baholash dasturi) yordamida ko'rib, ular baholanadi hamda g'olib guruh e'lon qilinadi.
Dars jihozi	darslik, ko'rgazmali qurollar, kerakli slaydlar, kompyuter, videoprojektor, rangli qog'ozdan tayyorlangan turli uchburchak shakllari, chizg'ich, transportir va sirkul
Dars turi	yangi bilimlarni beruvchi
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: o'quvchilarni dars davomida mavzu yuzasidan bilimga ega qilish. Guruhda va yakka tartibda ishlash orqali o'quvchilar faolligini oshirish; o'quvchilarning mustaqil masalalar yechishiga erishish. O'quvchi : uchburchaklar haqidagi bilimlari kengayadi, mustahkamlanadi, o'zlari mustaqil masalalar yecha oladilar.

Darsning rejasi:

№	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	2 daqiqa
3	Yangi mavzuni yoritish: a) mavzuni yoritishga tayyorgarlik b) yangi mavzuni yoritish	20 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash: a) mashq; b) xulosa	13 daqiqa

5	Darsga yakun yasash va baholash	5 daqiqa
6	Uy vazifasini berish	3 daqiqa

Darsning tashkiliy qismi:

1.Salomlashish: Salom aziz o'quvchilar, bugungi darsimizga xush kelibsiz.

2.Navbatchi hisoboti: Bugun, haftaning kuni, kuz faslining so'nggi kunlaridan biri. 2015 yil "Keksalarni qadrlash yili" deb e'lon qilinganiga ham bir yil bo'ldi. Bugungi darsimizda hamma o'quvchi qatnashmoqda, hamma darsga tayyor.


3.Sinfnng darsga tayyorgarligiga, doskaga e'tibor berib, darsda musobaqa tashkil etilishini e'lon qilinadi, o'quvchilarni 3 guruhga ajratib guruhlarini nomlanadi. (Teng yonli uchburchak, teng tomonli uchburchak, turli tomonli uchburchak)

Dars tafsilotlari:

1.Uyga berilgan vazifani tekshirish. (2-slayd)

Uy vazifasini tekshirish .

1. A va C nuqtalar a to'g'ri chiziqdan bir tomonda yotadi. a to'g'ri chiziqqa o'tkazilgan AB va CD perpendikularlar o'zaro teng. a) $\triangle ABD = \triangle CDB$ ekanini isbotlang; b) $\angle ADB = 44^\circ$ bo'lsa, $\angle ABC$ ni toping.



Isbot:

Berilgan: $AB \perp a, CD \perp a,$
 $AB = CD,$
 $\angle ADB = 44^\circ$

Isbot qilish kk: $\triangle ABD = \triangle CDB;$
 Topish kerak: $\angle ABC$

1. Shartga ko'ra: $AB = CD.$
 2. $\angle ABD = \angle CDB = 90^\circ$, chunki $AB \perp a, CD \perp a.$
 3. BD – umumiy.

Uchburchaklar tengligining birinchi alomatiga ko'ra $\triangle ABD = \triangle CDB$
 $\angle ADB = \angle CBD = 44^\circ, \angle ABC = \angle ABD - \angle ADB = 90^\circ - 44^\circ = 46^\circ$
Javob: $\angle ABC = 46^\circ$

2.Yangi mavzuni yoritishga tayyorgarlik:

Guruhlarga quyidagi savollar beriladi:

1.Uchburchak deb nimaga aytiladi?


2. Qanday uchburchaklarni bilasiz?

3. Uchburchakning asosiy elementlarini ayting.


4.Qanday uchburchakka teng yonli uchburchak deb ataladi? (3,4,5,6,7-slaydlar)

Uchburchakning uchini qarshisidagi tomon o'rtasi bilan tutashtiruvchi kesmaga uchburchakning **medianasi** deyiladi.

Uchburchak uchidan shu uch qarshisidagi tomon yotganto'g'ri chiziqqa tushirilgan perpendikularga uchburchakning **balandligi** deyiladi.



Uchburchak uchidan shu uch qarshisidagi tomon yotganto'g'ri chiziqqa tushirilgan perpendikularga uchburchakning **balandligi** deyiladi.



AO kesma qanday nomlanadi?

Mediana bissektisa balandlik

Mediana bissektisa balandlik

Mediana bissektisa balandlik

Rasmda balandlik, bissektisa va mediana tasvirlangan.
To'g'ri deb hisoblagan javobingizni belgilang.

Bissektisa **Mediana**

CO BK CM CO BK CM

Balandlik

CO CM BK

Qizil uchburchakka teng uchburchakni toping va uni ko'rsating.

Noto'g'ri!

Tekshirib ko'ring!


O'quvchilarga turli uchburchak shakllari beriladi va geometrik tadqiqot o'tkaziladi.

Berilgan uchburchaklarning tomonlarini, burchaklarini va asosiy elementlarini o'lchang hamda xulosa chiqaring.

3. Yangi mavzuni yoritish:

- Darslikdagi faollashtiruvchi mashq o'quvchilar bilan muhokama qilinadi;
- Tadqiqot natijalaridan payqalgan xossalar umumlashtirib, teorema ko'rinishida ifodalanadi.
- (8-slayd)

Teng yonli uchburchakning asosidagi burchaklari teng.



Berilgan: $\triangle ABC$ teng yonli,
AC – asos.

Isb. q. kk: $\angle A = \angle C$

Isbot:

BD bissektisa o'tkazamiz


1. $AB = BC$, chunki $\triangle ABC$ teng yonli
2. BD – umumiy
3. $\angle ABD = \angle CBD$, chunki BD – bissektisa.

$\triangle ABD = \triangle CBD$ (TBT) $\rightarrow$

$\angle A = \angle C$

- Teng yonli uchburchakning asosidagi burchaklari tengligi haqidagi teorema TBT alomatidan foydalanib isbotlanadi.
 - Teng yonli uchburchakning asosiga tushirilgan bissektisa ham balandlik, ham medianasi bo'lishi haqidagi teorema isbotlanadi.
- (9-slayd)

Teng yonli uchburchakning asosiga o'tkazilgan bissektisa ham balandlik ham mediana bo'ladi.



Berilgan: $\triangle ABC$ teng yonli,
AC – asos
BD – bissektisa

Isbot qilish kk: BD – mediana ($AD = CD$)
BD – balandlik ($BD \perp AC$)

Isbot:

1. $AB = BC$, chunki $\triangle ABC$ teng yonli
2. BD – umumiy
3. $\angle ABD = \angle CBD$, chunki BD – bissektisa.

$\triangle ABD = \triangle CBD$ (TBT) $\rightarrow$


$AD = CD$, demak BD – mediana,
 $\angle CDB = \angle ADB$, va o'zaro qo'shni, $\rightarrow \angle CDB = \angle ADB = 90^\circ$,
BD $\perp$ AC, demak BD – balandlik.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Guruhlarga topshiriqlar beriladi:(10,11,12-slayd)

$\triangle ABC$ teng yonli uchburchak. B burchakka teng burchakni belgilang!

To'g'ri! **O'yla!**




Teng yonli uchburchakning asosidagi burchaklari teng.

$\angle B = \angle A$

Tekshirish

Teng yonli uchburchaklarni toping.



To'g'ri!

B burchakka teng burchakni topib, belgilang.

Qo'shimcha savol

- ACP
- ACK
- ACB
- PCB
- KCB
- PCK

Teng yonli uchburchaklarni toping va asosini ayting.

ABC

KDN

ADN

KCD


OKN

BKN

OBK

ADN burchakka teng burchakni topib belgilang.


Barakalla!



Qo'shimcha savol

Masalalar yechish: (13-slayd)

Masala: Teng yonli uchburchakning asosi yon tomonidan 2 marta kichik, perimetri esa 50sm. Uchburchakning tomonlarini toping.



Berilgan: $\triangle ABC$ -t/yonli, $AB=BC=2AC$,
 $P=50$ sm.

Topish kerak: AB , BC , AC .

Yechish. $\triangle ABC$ –asosi AC bo'lgan teng yonli uchburchak.

$$\left. \begin{array}{l} AC = x \text{ sm.} \\ AB = 2x \text{ sm,} \\ BC = 2x \text{ sm.} \end{array} \right\} P=50 \text{ sm}$$

Tenglama tuzamiz:

$$x+2x+2x=50$$

$$5x=50$$

$$x=10 - AC \text{ tomon.}$$

$$AB=BC=20\text{sm.}$$

Javob: 20sm, 20sm,10 sm.



Uchburchaklar kundalik hayotimizda juda ko'p uchraydi:
 (14,15,16,17,18,19-slaydlar)

Bilyard o'yinida sharlarni o'yin boshida uchburchak ramkaga solib teng tomonli uchburchak shaklida terishadi.



Bouling o'yinida kegilarni teng tomonli uchburchak ko'rinishida taxlashadi.






Yuqori kuchlanishli elektr uzatkichlar asosi ham uchburchaklardan tuzilgan. Uchburchaklar qurilmani mustahkam qiladi.




Uchburchaklardan turli ko'priklar yaratish uchun foydalaniladi.

Hayotda bir qancha chiroyli naqshlar va parketlar yasash uchun ham uchburchaklardan foydalaniladi.



Ajoyib uchburchaklar

Paskal uchburchagi.



Paskal uchburchagining tuzilishi:
har bir son tagida turgan ikki son yig'indisidan tuzilgan. Barchasi oddiy ko'ringani bilan bunda qancha ajoyibot yashiringan. Uchburchakni cheksiz davom ettirish mumkin.

Paskal uchburchagini kompyuter ranglar tiliga o'girdi.




Б. Паскаль.



5.Baholash: O'yin yakunidan so'ng o'quvchilarga o'quvchilarning dars davomida yig'ib borgan ballari kompyuter (Avto baholash dasturi) yordamida ko'rib, ular baholanadi hamda g'olib guruh e'lon qilinadi.

6.Uy vazifasi: (20-slayd)

Uyga vazifa:



va darslikdagi 13-,14-,15- mashqlar.

Sinf: VIII

Sana:

Fan: Algebra.

Mavzu: Sonli tengsizliklar, ularning xossalari va sonli tengsizliklarni qo'shish va ayirish.

1. Darsning ta'limiy maqsadi:

O'quvchilarga sonli tengsizlik va uning xossalari, sonli tengsizliklarni qo'shish va ko'paytirish haqida tushuncha hosil qilish orqali o'zlashtirish

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchilarni aqliy faolligi va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'yin mashqlari orqali fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

Fanga bo'lgan qiziqishni orttirish, teran fikrlik va ijodkorlik xislatlarini tarbiyalash, o'zaro hamkorlikda ishlashga o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatish.

2. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar.

Bilimlar: sonli tengsizlik va uni qo'shish va ko'paytirish xossalarini bilish.

Ko'nikmalar: sonli tengsizlik ta'rifi va uning xossalarini tengsizlikni isbotlashda qo'llay olish, ularni geometrik masalalarda ko'rsatish.

3. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Uslub: noan'anaviy, o'yinlar metodi individual ishlash

Shakl: amaliy-yozma, og'zaki, jamoa va yakka tartibda ishlash

Nazorat: O'z-o'zini nazorat qila olish, kuzatish, tekshirish;

Baholash: dars yakunida o'quvchilarga o'quvchilarning dars davomida yig'ib borgan ballari ko'rib, ular baholanadi.

4. Dars turi. Yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi.

5. Dars jihozlari: Darslik, qo'llanma, kerakli slaydlar, kompyuter, rangli qog'ozdan tayyorlangan tarqatma materiallar, ko'rsatmali materiallar, oq qog'oz, grafopoektor .

6. Kutiladigan natijalar:

O'qituvchi o'quvchilarni dars davomida mavzu yuzasidan bilimga ega qilish. Guruh yoki yakka tartibda ishlash orqali o'quvchilar faolligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil misol va masalalar yechishiga erishish.

O'quvchilarning sonli tengsizlik va uning xossalari, sonli tengsizliklarni qo'shish va ko'paytirish haqidagi bilimlari kengaytirildi, mustahkamlandi, o'zlari mustaqil masala yecha oladilar.

7. Dars bosqichlari, qo'llash uchun tavsiya qilinadigan usul va vaqt taqsimoti:

№/	Dars bosqichlari		Vaqt taqsimoti
1	Tashkiliy qism		2 daqiqa
2	Yangi mavzuni yoritish: a) mavzuni yoritishga tayyorgarlik b) yangi mavzuni yoritish		15 daqiqa
3	Yangi mavzuni mustahkamlash: a) mashq b) xulosa		20 daqiqa
4	Darsga yakun yasash va baholash		5 daqiqa
5	Uyga vazifa berish		3 daqiqa

8. Darsning borishi:

1. Yangi mavzuni bayoniga tayyorgarlik: Darslikni oldingi bo'limi bo'yicha, yangi mavzuni o'zlashtirishiga yordam ko'maklashadigan matematik diktant.

1) Yangi mavzuni doska yoki grafopoektor ekrani yordamida uning mazmunini bayon qilish: bunda konspektga tayangan holda mavzuga oid misol va masalalarni yechimini ko'rsatish.

2) O'quvchilar bilan mavzularga oid turli ko'rinishdagi misol va masalalarni yechimlarini topishni mustahkamlash.

Dars tafsilotlari:

1. Yangi mavzuni yoritishga tayyorgarlik:

O'tgan mavzuni takrorlash va uyga vazifani so'rash.

O'tilgan mavzular bo'yicha savollar berib, o'quvchilarni baholash.

1. Agar ikkita son ko'paytmasi 0 bo'lsa, ularning har biri nol bo'lishi shart.

2. Ikkita son yig'indisi musbat bo'lsa, ularning har biri musbat bo'lishi kerak.

3. 7 ta qisqa ko'paytirish formulalaridan qaysi biri har doim musbat bo'ladi.

4. Bir nechta sonlarni ayirmasi nol bo'lsa, bu sonlar haqida nima deyish mumkin.

5. Uchburchakning perimetri 50 dan katta bo'lgan tub son bo'lsa, tomonlaridan kamida ikkitasi 10 dan katta bo'lgan tub son bo'ladi.

6. Ikkita son ham manfiy son bo'lsa, ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va bo'linmasi ham manfiy bo'ladi.

7. Uchburchakning tomonlari 0 dan katta va 1 dan kichik bo'lishi mumkinmi?

8. Qoldiqli bo'lish formulasini ifodaganda qanday shart kerak bo'ladi.

2. Yangi mavzuning yoritilishi

Bu paragrafda sonli tengsizliklarning odatda asosiy deb ataladigan xossalari qoraladi, chunki ulardan tengsizliklarning boshqa xossalarini isbotlashda va ko'pgina masalalarni yechishda foydalaniladi.

1-teorema. Agar $a > b$ va $b > c$ bo'lsa, u holda $a > c$ bo'ladi.

Shartga ko'ra $a > b$ va $b > c$. Bu $a - b > 0$ va $b - c > 0$ ni hosil qilamiz, ya'ni $a - c > 0$. Demak, $a > c$.

Geometrik nuqtayi nazardan 1 – teorema agar son o'qida a nuqta b nuqtadan o'ngda yotsa va b nuqta c nuqtadan o'ngda yotsa, u holda a nuqta c nuqtadan o'ngda yotishini bildiradi.

2-teorema. Agar tengsizlikning ikkala qismiga ayni bir son qo'shilsa, u holda tengsizlik ishorasi o'zgarmaydi.

$a > b$ bo'lsin. Bu holda ixtiyoriy c son uchun $a+c > b+c$ tengsizlikning bajarilishini isbotlash talab qilinadi. Ushbu

$(a+c) - (b+c) = a + c - b - c = a - b$ ayirmani qaraymiz. Bu ayirma musbat, chunki masalaning shartiga ko'ra $a > b$. demak, $a + c > b + c$.

Natija. Istalgan qo'shiluvchini tengsizlikning bir qismidan ikkinchi qismiga shu qo'shiluvchini ishorasining qarama qarshisiga almashtirgan holda ko'chirish mumkin.

$a > b + c$ bo'lsin. Bu tengsizlikning ikkala qismiga $-c$ sonni qo'shib, $a - c > b + c - c$ ni hosil qilamiz, ya'ni $a - c > b$.

3-teorema. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir musbat songa ko'paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi o'zgarmaydi. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir manfiy songa ko'paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi qarama-qarshiga o'zgaradi.

1) $a > b$ va $c > 0$ bo'lsin. $ac > bc$ ekanini isbotlaymiz.

Shartga ko'ra $a - b > 0$ va $c > 0$. Shuning uchun $(a - b)c > 0$, ya'ni $ac - bc > 0$. Demak, $ac > bc$.

2) $a > b$ va $c < 0$ bo'lsin. $ac < bc$ ekanini isbotlaymiz. Shartga ko'ra $a - b > 0$ va $c < 0$. Shuning uchun

$(a - b)c < 0$, ya'ni $ac - bc < 0$.

Demak, $ac < bc$.

Masalan, $\frac{1}{5} < 0,21$ tengsizlikning ikkala qismini 3 ga ko'paytirib, $\frac{3}{5} < 0,63$ ni hosil qilamiz, $\frac{1}{5} < 0,21$

tengsizlikning ikkala qismini - 4 ga ko'paytirib esa $-\frac{4}{5} > -0,84$ ni hosil qilamiz. Agar $c \neq 0$ bo'lsa, u holda

c va $\frac{1}{c}$ sonlar bir xil ishoraga ega bo'lishini ta'kidlab o'tamiz. C ga bo'lishni $\frac{1}{c}$ ko'paytirish almashtirish mumkin bo'lgani uchun 3-teoremadan quyidagi tasdiq kelib chiqadi.

Natija. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir musbat songa bo'linsa, u holda tengsizlik ishorasi o'zgarmaydi. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir manfiy songa bo'linsa, u holda tengsizlik ishorasi qarama-qarshisiga o'zgaradi.

Masalan, $0,99 < 1$ tengsizlikning ikkala qismini 3 ga bo'lib, $0,33 < \frac{1}{3}$ ni hosil qilamiz, $0,99 < 1$ tengsizlikning ikkala qismini -9ga bo'lib esa $-0,11 > -1/9$ ni hosil qilamiz.

1-masala. Agar $a < b$ bo'lsa, u holda $-a > -b$ bo'lishini isbotlang. $a < b$ tengsizlikning ikkala qismini -1 manfiy songa ko'paytirib, $-a > -b$ ni hosil qilamiz.

Masalan, $1,9 < 2,01$ tengsizlikdan $-1,9 > -2,01$ tengsizlik kelib chiqadi, $0,63 > 3/5$ tengsizlikdan $-0,63 < -3/5$ tengsizlik kelib chiqadi.

2-masala. Agar a va b – musbat sonlar va $a > b$ bo'lsa, u holda $1/a < 1/b$ bo'lishini isbotlang.

$b < a$ tengsizlikni ikkala qismini ab musbat songa bo'lib, $1/a < 1/b$ ni hosil qilamiz.

Tengsizliklarning mazkur paragrafda qaralgan barcha xossalari $>$ (katta) ishorali tengsizlik uchun isbotlanganini ta'kidlab o'tamiz.

$Ular <$ (kichik) ishorali tengsizliklar uchun ham aynan shunday isbotlanadi.

Tengsizliklarni qo'shish va ko'paytirish

Turli masalalarni yechish davomida ko'pinchi tengsizliklarni qo'shish yoki ko'paytirishga, ya'ni tengsizliklarning chap qismlarini alohida va o'ng qismlarini alohida qo'shish yoki ko'paytirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda ba'zan tengsizliklar hadlab qo'shilyapti yoki hadlab ko'paytirilyapti, deyiladi.

Masalan, agar sayyoh birinchi kuni 20 km dan ko'proq, ikkinchi kuni esa 25 km dan ko'proq yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, u holda u ikki kun ichida 45 km dan ko'proq yo'l bosib o'tdi, deb aytish mumkin. Xuddi shunday, agar to'g'ri to'rt burchakning bo'yi 13 sm dan kam, eni 5 sm dan kam bo'lsa, u holda shu to'g'ri to'rtburchakning yuzi 65 sm^2 dan kam, deb aytish mumkin.

Bu misollarni qarashda tengsizliklarni qo'shish va ko'paytirish haqidagi quyidagi teoremlar qo'llaniladi.

1-teorema. Bir xil ishorali tengsizliklarni qo'shishda xuddi shu ishorali tengsizlik hosil bo'ladi: agar $a > b$ va $c > d$ bo'lsa, u holda $a+c > b+d$ bo'ladi.

Shartga ko'ra $a - b > 0$ va $c - d > 0$. ushbu ayirmani qaraymiz: $(a+c) - (b+d) = a+c - b - d = (a-b) + (c-d)$.

Misollar:

$$\begin{array}{r} 1) \quad 3 > 2,5 \\ + \quad 5 > 4 \\ \hline 8 > 6,5 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 2) \quad 1,2 < 1,3 \\ + \quad -3 < -2 \\ \hline -1,8 < -0,7 \end{array}$$

Musbat sonlarning yig'indisi musbat bo'lgani uchun $(a+c) - (b+d) > 0$, ya'ni $a+c > b+d$.

2-teorema. Chap va o'ng qismlar musbat bo'lgan bir xil ishorali tengsizliklarni ko'paytirish natijasida xuddi shu ishorali tengsizlik hisil bo'ladi: agar $a > b$, $c > d$ va a, b, c, d – musbat sonlar bo'lsa, u holda $ac > bd$ bo'ladi.

Ushbu ayirmani qaraymiz:

$$ac - bd = ac - b + bc - bd = c(a-b) + b(c-d).$$

Shartga ko'ra $a-b > 0$, $c-d > 0$, ya'ni $ac - bd > 0$, bunda $ac > bd$.

1-masala. Agar a , b – musbat sonlar va $a > b$ bo'lsa, u holda $a^2 > b^2$ bo'ladi.

$a > b$ tengsizlikni o'z-o'ziga ko'paytirib, quyidagini hosil qilamiz:

$$a^2 > b^2$$

Shunga o'xshash, a, b – musbat sonlar va $a > b$ bo'lsa, u holda istalgan natural n uchun $a^n > b^n$ ekanligini isbotlash mumkin.

Masalan, $5 > 3$ tengsizlikdan $3^5 > 3^3, 5^7 > 3^7$ kabi tengsizliklar kelib chiqadi.


Misolalar:

$$\begin{array}{r} 1) \quad 3,2 > 3,1 \\ \times \quad 3 > 2 \\ \hline 9,6 > 6,2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 2) \quad 1,8 < 2,1 \\ \times \quad 4 < 5 \\ \hline 7,2 < 10,5 \end{array}$$

2-masala. Uchburchak ichida yotuvchi istalgan nuqtadan istalgan nuqtadan uning uchlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi shu uchburchak yarim perimetridan katta ekanligini isbotlang.

AOB, AOC, BOC uchburchaklardan uchburchak ikki tomonining yig'indisi haqidagi teorema ko'ra:



$$x + y > c,$$

$$x + z > b,$$

$$y + z > a.$$

Bu tengsizliklarni hadlab qo'shib, $2x + 2y + 2z > a + b + c$ ni hosil qilamiz, bundan

Demak,

$$x + y + z > \frac{a+b+c}{2}$$

6. Uyga vazifa berish:

Masala.

1. To'g'ri to'rtburchak ichida yotuvchi istalgan nuqtadan uning uchlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi shu uchburchak yarim perimetridan katta ekanligini isbotlang.

2. Agar $a > 2$ va $b > 5$ bo'lsa,

$$1) \quad 3a + 2b > 16;$$

$$2) \quad ab - 1 > 9;$$

$$3) \quad a^2 + b^2 > 29;$$

$$4) \quad a^3 + b^3 > 133;$$

bo'lishini isbotlang.

3. 4 ta umumiy daftar va 8 ta yon daftar sotib olindi. Umumiy daftarning narxi 200 so'mdan kam, yon daftarniki esa 150 so'mdan kam. Barcha xarid 2000 so'mdan kamligini ko'rsating.

Test.

1. $a^3 > a$ tengsizlik o'rinli bo'lishi uchun a ga qanday shart tanlash kerak bo'ladi.

A) $a > 0$

B) $a > 1$

C) $a \in \mathbb{R}$

D) $a < 0$

2. x va y ga qanday shartlar berilsa, $x^2 + x - y^2 > 0$ bo'ladi har doim.

- A) $y > 0$ B) $x > 1$ C) $x, y \in \mathbb{R}$ D) $x < 0$

3. $x + 2 < x + 1^2$ tengsizlik har doim bajarilishi mumkin bo'lgan qiymati necha.

- A) $x > 0$ B) $x < 0$ C) $x \neq 0$ D) $x \in \mathbb{R}$

4. $a > b$ bo'lsa, $a^n > b^n$ tengsizlik to'g'ri. Agar.....

- A) n -toq natural sonlar B) n -juft natural sonlar C) $n \in \mathbb{R}$ D) $n < 0$

5. $x \in \mathbb{R}$ son bo'lganda quyidagilardan qaysi biri bajariladi.

- A) $x - 1^2 > 0$ B) $2x - 1^2 \geq 0$ C) $x^2 > 0$ D) $x - 1^2 < 0$

6. $a, b \in \mathbb{N}$, $\frac{a}{b} < 1$ bo'lsa bo'ladi.

- A) $a > b$ B) $b < 0$ C) $b > a$ D) $a \neq b$

Boshlang'uch sinf o'qituvchisi Nilufar G'aniyeva

Sana:

Sinf: 2-"A"

Dars: Matematika

Mavzu: 71-8 ko'rinishidagi misollarni ayirish. O'rganilgan turdagi misol va masalalar yechish

Maqsad:

1.Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga 71-8 ko'rinishidagi misollarni ayirish, o'rganilgan turdagi misol va masalalar yechish yuzasidan ma'lumot va tushunchalar berish

2.Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarga qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib yechish, yechtirish orqali matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish

3.Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish .

Dars turi: BKM rivojlantiruvchi.

Darsda foydalaniladigan metodlar: noan'anaviy, interfaol

Darsda foydalaniladigan jihozlar: ko'rgazmali va didaktik materiallar, multimedia

Dars jarayoni va texnologik xaritasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash, sinfning darsga	Savol-javob	2 daqiqa

	tayyorgarligini tekshirish		
2-bosqich Uyga vazifani tekshirish	Slayd yordamida 64-betdagi 7,8 -misollar tekshiriladi	“Jim” o`yini	2 daqiqa
3-bosqich O`tilgan mavzuni mustahkamlash	Matematikadagi amallar sonini aniqlash Har bir amal hadlarini takrorlash Noma`lum hadlarni topish	Savol-javob	15 daqiqa
4-bosqich Yangi mavzu bayoni	1-misolni yechish Dam olish daqiqasini o`tkazish 2-masalani yechish 3-misolni yechish 4-misolni yechish 5-masala. Shakllardagi uchburchaklarni topishga doir topshiriqni bajarish	Tushuntirish Muammoli izlanish	18 daqiqa
5-bosqich Yangi mavzuni mustahkamlash	Mantiqiy masalaning yechimini topish	Muammoli izlanish	4 daqiqa
6-bosqich Baholash	O`quvchilarning darsda ishtirok etganini hisobga olib reyting bali e`lon qilinadi.		1 daqiqa 1 daqiqa
7-bosqich Uyga vazifa	6,7 misol va masala topshiriladi	Tushuntirish	2 daqiqa

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism:

a) o`quvchilarni darsga hozirligini tekshirish,

II.Uy ishini tekshirish. 7,8-misollar (slayd yordamida)

- 7-misol
- 63,72,86,47 sonlarini namunada ko`rsatilganidek yig`indi bilan almashtiring: $59=50+9$
- $63=60+3$
- $72=70+2$
- $86=80+6$
- $47=40+7$

8-misol

Shunday son qo`yingki tenglik to`g`ri bo`lsin

- $48 + \dots = 53$ $85 - \dots = 80$ $59 - \dots = 50$
- $39 + \dots = 46$ $63 - \dots = 60$ $23 - \dots = 20$
- $53 + \dots = 62$ $79 - \dots = 70$ $98 - \dots = 90$

Javoblar:

$48 + 5 = 53$	$85 - 5 = 80$	$59 - 9 = 50$
$39 + 7 = 46$	$63 - 3 = 60$	$23 - 3 = 20$
$53 + 9 = 62$	$79 - 9 = 70$	$98 - 8 = 90$

III. O`tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash)

O`quvchilarning o`tgan mavzular yuzasidan og`zaki va yozma hisoblash ko`nikmalarini **rivojlantirish**.

IV . Mavzu bayoni

O`quvchilarga 71-8 ko`rinishidagi misollarni ayirish, o`rganilgan turdagi misol va masalalar yechish yuzasidan ma`lumot va tushunchalar berish

$$71 - 8 = (71 - 1) - 7 = 63$$

1-misol

$64 - 4 =$	$87 - 7 =$	$38 - 8 =$
$64 - 7 =$	$87 - 9 =$	$38 - 9 =$

Dam olish daqiqasi

2-masalaga qisqa yozuv bo`yicha shart tuzib yechish topshiriladi . Bu shart orqali matematikaga bo`lgan qiziqishlari oshiriladi.

Ayollar p-54 j

Erkaklar p-?, 7 j kam

Yechish: $54 - 7 = 47$ ta (E .p)

Javob: 47 ta erkaklar poyabzali sotilgan

O`quvchilarga erkak va ayollarning oyoq kiyimi ingliz tilida aytilishi va yozilishi tushuntiriladi

Womens shoes-ayollarning poyabzali

Mens shoes-erkaklarning poyabzali





3-Misol xattaxtada o'quvchilar yordamida bajariladi . Har bir qatordan navbat bilan o'quvchilar chiqib xattaxtada misolni yechadilar.

4-misol

Slayd yordamida bajariladi.

5- masala

Shakllarni daftaringizga chizing va ulardagi uchburchaklar sonini aniqlang.



Javob: 1-shaklda 4 ta uchburchak bor

2-shaklda ham 4 ta uchburchak bor

V. Mavzu mustahkamlash. Mantiqiy masala yechish.

VI. Darsga yakun yasash. O`quvchilarni bilimini baholash.

Qatorlar bo'yicha faol o`quvchilarni aniqlash va rag`batlantirish.

-Dars sizga yoqdimi?

-Darsdagi qaysi jarayon sizga yoqdi?

-Bu dars haqida kim bilan suhbatlashasiz?

Yuqorida berilgan savollarga o`quvchilar javob beradilar. O`quvchilarning javoblari umumlashtirilib dars haqida xulosa yasaladi.

VII. Uy vazifa : darslikdagi 65-betda berilgan 6-masala va 7-misol bajarilishi haqida o`quvchilarga ko`rsatmalar beriladi.

Boshlang'ich sinf o`qituvchisi Dilfuza Abdullayeva

Fan nomi: Matematika

Dars mavzusi: $36+48,35+53$ ko`rinishidagi misollarni yechish

Maqsad va vazifalari	Ta'limiy: O`quvchilarga mavzu haqida ma'lumot berish va mantiqiy fikrlash, mustaqil yechish, o'z fikrini bayon qila olishga o'rgatish. <b>Tarbiyaviy:</b> O`quvchilarga axloqiy fazilatlarini singdirish va ularni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatlarida qo'llashga o'rgatish. Kasbga qiziqtirish. Rivojlantiruvchi: O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va matematik tasavvurini shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy, og'zaki hamda yozma hisoblash malakalarini rivojlantirish. <b>Vazifalari:</b> O`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish va kengaytirish; mavzuga oid tarqatmalar va matnlar ustida mustaqil ishlashga undash.
O`quv jarayonining mavzusi	Yangi mavzu haqida tushuncha berish, bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Tipi: Yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi, sinovchi, umumlashtiruvchi. Usul: An'anaviy, noan'anaviy. Uslub: Yozma, og'zaki savol-javob, ko'rgazmali, amaliy, bahs-munozara(debat), mustaqil ish. Jihoz: Darslik, multimediya, o`quv qurollari ,rag`batlantiruvchi kartochkalar, darsga oid ko'rgazmalar, mustaqil ish varaqalari, plakatlar. Baholash: 5 balli tizimda.
Kutiladigan natijalar	O`qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o`quvchilarning o`zlashtirishiga erishadi. O`quvchida darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Oldiga qo'yilgan muammolarni yechishni o'rgatadi. O'z ustiga mustaqil ishlaydi.
	O`quvchi:</b> Yangi mavzuni o`zlashtiradi. Nutqi rivojlanadi, o'z-o'zini nazorat qiladi, mavzular ustida ishlaydi. Mavzuni o`zlashtirish orqali bilim,

	ko`nikma va malakalarga ega bo`ladi.
Kelgusi reja	O`qituvchi:</b> Yangi metod va usullarni tadbiq etadi. O`z mahoratini oshiradi.
	O`quvchi:</b> Shu ma'lumotlar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar to`playdi. Xulosa chiqarib, malakasini oshiradi.

Darsning blok - chizmasi

№	Dars bosqichlari	Vaqt taqsimoti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O`tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni: baholash	4 daqiqa
6	Uyga vazifa	3 daqiqa

Darsning borishi:

a) **I. Tashkiliy qism:** Salomlashish.

b) biz navbatchi bo`lamiz,

Sinfdagi tartibga javobgarlik qilamiz.

Matematika darsiga tayyordir barcha sinf

-Davomatchi?-100 foiz

O`tiribmiz hammamiz.

c) O`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

-Bugun darsimizda o`tilgan mavzularni mustahkamlaymiz, ikki xonali sonlarni qo`shishni o`rganamiz, mantiqiy misol, masalalarni yechamiz .

Darsimiz shiori:

Qiziqarli misollarni yechamiz,

Matematika sirlarini ochamiz .

II. O`tilgan darsni so`rash.

Uyga berilgan vazifani tekshirib, tahlil qilish va xatolar ustida ishlash

**UYGA VAZIFANI
TEKSHIRAMIZ**

*Bor edi- 42 qop makkajo`xori
Jo`natildi-5qop va 4 qop makkaj.
Qoldi-? qop*

Yechish:

1. $5+4=9$ (qop)

2. $42-9=33$ (qop)


Javob: 33 qop
makkajo`xori qolgan

7-misol

$42-2=40$
 $42-7=35$
 $57-7=50$

$57-9=48$
 $27+2=29$
 $27+20=47$

$38+2=40$
 $38+20=58$



O`tilgan mavzuni mustahkamlab olamiz.

- O`tgani darsda biz qanday mavzu ustida ishlagan edik?
- Ipak qurti o`z bo`g`inlaridagi sonlarni yo`qotib qo`yibdi . Mantiqan o`ylab , bu zanjirdagi sonlar qatorini davom ettiring.



II. Yangi dars bayoni :

-Bugun biz sizlar bilan ikki xonali sonlarni qo`shishni o`rganamiz.

(“Sog`lom bola” dasturidan foydalaniladi)

$$37 + 53 = \square\square$$

$$\begin{array}{r} 37 + 53 = \square\square \\ \begin{array}{cc} \swarrow \searrow & \swarrow \searrow \\ 30 & 7 & 50 & 3 \end{array} \\ 30 + 50 = 80 \\ 7 + 3 = 10 \\ 80 + 10 = 90 \end{array}$$

Ikki xonali sonni ikki xonali songa qo'shishda o'nliklar o'nliklarga, birliklar birliklarga qo'shiladi.

-Eng sevgan mashg'ulotingiz nima?

-Qanday kitob o'qishni yaxshi ko'rasiz?

-Kitoblarga qanday munosabatda bo'lish kerak?

-Kitob qadim-qadimdan e'zozlangan. Ota-bobolarimiz kitobni qo'llariga olganlarida uni o'pib ko'zlariga surtganlar. Uning varag'ini yirtish, iflos joylarga qo'yish gunoh sanalgan.

Kitobni muqaddas deb bilganlar.

2-masala sharti o'qitiladi

Yuqori sinf o'quvchilari 27 ta hikoya va 38 ta she'riy kitob ta'mirlashdi.


O'quvchilar hammasi bo'lib nechta kitob ta'mirlashgan?

-Siz nima o'qidingiz?

-Masala ekanligini qanday isbotlaysiz?

(Masala bir necha qismdan iborat: m.sharti, savoli, yechim, javobi)

Qisqa sharti tuziladi:



Hikoya kitob-27 ta
She'riy kitob-38 ta } **? ta kitob**

Yechish:

$27+38=65$ (ta kitob)


Javob: O`quvchilar hammasi bo`lib 65ta kitob ta'mirlashgan

Jismoniy tarbiya daqiqasi o'tkaziladi.

III . Yangi darsni mustahkamlash

3-misol

Sonlarni xona qo'shiluvchilari ko'rinishida yozing:



3-misol.

Darchalarni to'ldiring :

$37=30+7$ **$87=80+7$** 🐜 **$15=10+5$** 🐜

$48=40+8$ 🐜 **$13=10+3$** 🐜 **$38=30+8$** 🐜

“Sog'lom bola“ dasturidan misollar yechiladi.

4-misol bajariladi.

Uchrashdilar shakllar arang

Hafa bo'ldi to'rtburchak tezda,

Bilolmayin nomlarin, tajang

Yordam kerak do'stlarim bizga


So`radilar bir-bir, ketma-ket

Arazchini tezda topingiz

1-ga uchburchak nomin

To`rtburchaklar sonin aytingiz.

Qo`ydilarda o`ylamay ketin



Har bir shaklga ta`rif beriladi.



- O`zbekiston milliy boyligi nima?

- Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?



- Qachon mahsulot tovarga aylanadi?

- Tovar nimaga ayirboshlanadi?

5-masala sharti o`qiladi.

To`liq masala tuziladi.

1-bidonda — 17 l yog`
2-bidonda — 28 l yog` ) ? litr yog`



Yechish:

17+28=45(l yog`)

Javob: 45 l yog` bor





IV.Darsning yakuni:

O`quvchilarni mustaqil ravishda ishlashlariga qarab baholanadi.

O`quvchilar rag`batlantiriladi, g`olib guruh aniqlanadi.

V. Uyga vazifa: 67-bet 7-8- misollar.Vazifalarni bajarish uchun yo`llanma beriladi.



Uyga vazifa:

6-masala
Qo'g'irchoq-37 ta
Ayliqcha- 53 ta } **? ta o'yinchoq**

7. $27+18$ $42-5$ $32+16$ $27+33$
 $45-23$ $38+5$ $43+20$ $47+28$



Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dildora Tosheva

Darsning ta'lim texnologiyasi modeli

I.Ta'lim berish texnologiyasi

Vahti 45 daqiqa	O'quvchilar soni 30 nafar
Darsning shakli va turi:	Yangi bilim beruvchi
Darsning rejasi:	10 sonini hosil qilishni tushuntirish. 10 sonini hosil qilishga doir misollar yechish. - Yangi mavzunu mustahkamlash.
Darsning maqsadi:	a) ta'limiy : o'quvchilarga mavzu bo'yicha bilimlar berish, ularning 9 ga sonni qo'shish va 9 dan sonni ayirish ustida egallagan bilimlarini mustahkamlash; 10 sonini hosil qilish yuzasidan bilim berish. b) tarbiyaviy: o'quvchilarni kattalarni hurmat qilish, bilim cho'qqilarini egallab, kelajakda Vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan komil inson bo'lib yetishishga undash: d) o'quvchilarning hozirjavoblik, topqirlik qobiliyatlarini, mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish.
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari: -10 sonini hosil qilish yuzasidan

-10 sonini hosil qilishni tushuntirish; - 10 sonini hosil qilishga doir misollar yechish - mavzuga oid masala yechish.	tushunchalarga ega bo`ladilar; - 10 sonini hosil qilishga doir jadvalda berilgan misollarni yechadilar; -rasm asosida masala tuzadilar va uning yechimini topadilar.
Ta'lim metodlari:	Ko`rgazmali, savol-javob, didaktik o`yin
Ta'lim shakllari:	Frontal, jamoaviy va yakka tartibda ishlash.
Ta'lim vositalari:	Darslik. "Matematika" daftari, texnik vositalar, multimediali taqdimot,
Ta'lim berish sharoiti:	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan boshlang`ich sinf xonasi.
Monitoring va baholash:	Og`zaki so`rov: tezkor so`rov Yozma so`rov: chiroyli va xatosiz yozish.

2. Darsning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O`qituvchi	O`quvchi
1-bosqich. Tashkiliy qism. (3 daqiqa)	1.1.Salomlashiladi. 1.2. Ma'naniyat daqiqasi o`tkaziladi.	1.1 Navbatchi axboroti tinglanadi. 1.2. O`quvchilar dars shiorini aytadilar.
2-bosqich. O`tilganlarni takrorlash (7 daqiqa)	2.1. 9 ga sonni qo`shish va 9 dan sonni ayirish ustida egallagan bilimlarini mustahkamlash	2.1. Misollar orqali mavzu takrorlanadi.
3-bosqich Asosiy (15 aqiqa)	3.1.Mavzu e`lon qilinadi. 3.2. 10 sonini hosil qilish yuzasidan bilim beriladi. 3.3. 10 sonini hosil qilishga doir jadvalda berilgan misollarni yechadilar	3.1., 3.2. Tinglaydilar. 3.3.Javob beradilar.

4-bosqich Mustahkamlash (10 daqiqa)	4.1. Yangi mavzuni mustahkamlash.	4.1.
5-bosqich Yakuniy (7 daqiqa)		

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

- a) Salomlashish;
- b) Navbatchining axborotini tinglash;
- c) Ma'naviyat daqiqasini o'tkazish;

O'qituvchi : Yurtimizda har bir yilni ma'lum nom bilan atash an'anasi mavjud. Bu yil qanday nomlanganligini bilasizmi?

O'quvchi: 2015-yil yurtboshimiz tomonidan "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilingan.

O'qituvchi : Keksalar deganda kimlarni tushunasiz?

O'quvchi: Keksalar bu bizning buvi-buvalarimiz, hayotiy tajribaga ega nafaqadagi yoshi ulug' kishilar.

O'qituvchi : E'zozlash deganda nimani tushunasiz?

O'quvchi: Kattalarni hurmatlash, qadrlab ardoqlash, ularni aytganlarini bajarish, yordam berishni tushunaman.

O'qituvchi : Bobolarimiz bizga nima deydilar?

O'quvchilar: Bobolar aytadilar,
Bilim boylik kaliti.

O'qituvchi: Demak, bobolarimiz nabiralarini bilimli, aqlli va dono bo'lishlarini istaydilar. Siz bilim cho'qqilarini egallashga tayyormisiz?


O'quvchilar: Tayyormiz.

O'qituvchi: Unda bugungi darsimizni boshlaymiz. Darsimiz shiori:

O'quvchilar: Matematika fanlar ichra shoh,
Uning sirlaridan bo'lamiz ogoh.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash.

O'tgan dars mavzusi " 9 ga sonni qo'shish va 9 dan sonni ayirish" mavzusini mustahkamlash maqsadida "Zanjir" topshirig'ini bajaradilar.



O`quvchilar rag`batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni

Mavzu e`lon qilinadi. Sinfga sanoq sonlar taklif etiladi. Barcha sonlar so`zga kirib, o`zlariga ta`rif beradilar. Sonlar yordamoda 10 sonini hosil qilish tushuntiriladi.slayd orqali yoritib boriladi.

10 sonni hosil qilish

1 2 3 4 5 6 7 8 9

1-misol og`zaki bajariladi.

1. 10 gacha to'ldiring:

9	8	6	4	7	2	5
1						

Daftar bilan ishlash. Darslikdagi 2-misol "Matematika daftari"ning 46-betiga yozma bajariladi.

2.

$9 + 1$	$6 + 4$	$7 + 3$	$2 + 8$
$8 + 2$	$5 + 5$	$4 + 6$	$3 + 7$

3-masala rasm asosida og`zaki bajariladi:

3.

$6 + \square = \square$


$\square + 4 = \square$

- Qizil atirgullar nechta?
- 6 ta
- Sariq atirgullar nechta?

- 4 ta
- Hamma atirgullar nechta?
Buning uchun $6+4=10$ yoki $4+6=10$ tarzda hisoblanishi lozimligi tushuntiriladi.

Dam olish daqiqasini o'tkazish.

VI. Yangi mavzuni mustahkamlash. Daftarda berilgan topshiriq darchalarni to'ldirish orqali bajariladi.



10 sonini hosil qilishga doir bilimlarini mustahkamlash.

V.Darsni yakunlash.

Darsga faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Informatika fani o'qituvchisi Feruza Umarova

7- B Sinf

7-dars. Axborotlarning kompyuterda tasvirlanishi

Darsning ta'limiy maqsadi:

O'quvchilarga axborotlarni kompyuterda tasvirlanishi hamda kompyuterning arifmetik asosi haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga yo'naltirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchilarning kompyuter haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Asosiy tushunchalar:

Axborotlarni ikkilikda kodlash, axborot miqdori va uzatish tezligi, ularning birliklari.

Mavzuni boshlashga hozirlik:

Informatika darsligi va plakatlari, tarqatma materiallar tayyorlab qo'yiladi. Mavzuga mos elektron qo'llanmalar kompyuterga yuklab ishchi holatga keltiriladi.

Darsda qo'llash mumkin bo'lgan uslub: aqliy hujum, to'rtli usul, klaster, hamma-hammaga o'rgatadi, zig-zag.

Darsning blok-sxemasi:

№	Darsning rejasi	Ajratilgan vaqti
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish	8 daqiqa
3	Aqliy hujum, o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni bayoni	10 daqiqa
5	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
6	Dars yakuni	2 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	2 daqiqa

1. O'qituvchi darsni salomlashish bilan boshlaydi.

2. Davomatchi davomat hisobotini beradi.

O'qituvchi otilgan mavzular haqida so'raydi va uy vazifasini tekshiradi. Buning uchun:

1. Tarqatma materiallardan foydalaniladi.

2. Savol- javob o'tkaziladi.

Tarqatma materiallardan namuna:

$\frac{a}{b} = \frac{c}{d}$ 1. $\frac{a}{b} = \frac{c}{d}$ ko'rinishidagi yangi axborotni olish uchun quyidagi axborotlardan qaysi birlari qayta ishlangan?	3. Berilgan 16 lik sanoq sistemasidagi sonni 2 lik sanoq sistemasiga otkazing: $A \ D \ 3 \ 1 \ 0_{16} = X_2$
--	--

<table border="1"> <tr> <td data-bbox="177 197 472 320">a) $d \neq 0, a = b \cdot \frac{c}{d}$</td> <td data-bbox="472 197 783 320">b) $a \cdot d = c \cdot b$</td> </tr> </table>	a) $d \neq 0, a = b \cdot \frac{c}{d}$	b) $a \cdot d = c \cdot b$	
a) $d \neq 0, a = b \cdot \frac{c}{d}$	b) $a \cdot d = c \cdot b$		
2.Quyidagi axborotning xatosini toping va izohlang a) dri...er b) sof...ware	4. Rasmda berilgan axborotni yozuv ko'rinishida ifodalang.. 		

Assistement usuli

№	Asosiy tushunchalar	Ular haqida tushunchaga egaman 6 ta	4 ta	2 ta	1 ta
1	Axborot,uning turlari				
2	Axborot va bilish haqida				
3	Axborotli jarayonlar				
4	Axborot tashuvchi vositalar				
5	Sanoq sistemalari va tarixi				
6	Pozitsiyali va pozitsiyasiz sanoq sistemalari				
7	2 lik sanoq sistemasida amallar bajarish qoidalari				
8	Turli asosli sanoq sistemasida o'tkazish				
9	Triada usuli va tetrada usuli haqida				

Shu “Bumerang” usulidagi tarqatma material yordamida savol-javob o'tkaziladi.

Mavzuni yoritish:

Kompyuter raqamlarning o'zini emas, balki shu raqamlarni ifodalovchi signallarni farqlaydi. Bunda raqamlar signalning ikki qiymati bilan (magnitlangan yoki magnitlanmagan; ulangan yoki ulanmagan; ha yoki yo'q va h.k.) ifodalanadi. Bu holatning birinchisini 0 raqami bilan, ikkinchisini esa 1 raqami bilan belgilash qabul qilingan bo'lib, axborotni ikkita belgi yordamida kodlash (qisqacha, ikkilikda kodlash) nomini olgan.

Masalan:

A - 01000001 H - 01001000 M - 01001101 T - 01010100
 B - 01000010 K - 01001011 O - 01001111 U - 01010101
 C - 01000011 I - 01001001 R - 01010010 X - 01011000
 D - 01000100 L - 01001100 S - 01010011 V - 01010110

Kompyuterlarda har bir belgiga 0 va 1 belgilarining ketma-ketligidan iborat 8 ta belgi mos qo'yiladi. 8 ta nol va birlarning turli o'rin almashtirishidan foydalanib, turli xildagi belgilarni kodlashimiz mumkin. 0 va 1 dan iborat raqamlar yordamida ularni 8 tadan ajratsak, bu o'rin almashtirishlar soni $2^8 = 256$ ga teng bo'ladi, ya'ni ular yordamida 256 ta harflar, raqamlar, turli boshqa belgilarni kodlash mumkin bo'ladi. Masalan:

DARS so'zi 01000100 01000001 01010010 01010011 kabi kodlanadi

MAHORAT so'zi 01001101 01000001 01001000 01001111 01010010 01000001 01010100 kabi kodlanadi. Buyruqlarni yoki turli boshqa turdagi axborotlarni kodlash uchun shu tartibda yondashiladi. Biroq, turli rusumdagi kompyuterlar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Bu texnikaning xususiyatiga bog'liq.

Sanoq sistemasining tetrada jadvaliga ko'ra $4 = 0100$ va $1 = 0001$ ga teng. 16 lik s/sistemasidagi 41 soni $= 01000001_2$ va bu kodlangan belgi A ga teng. Bunda har bir raqam va alifbodagi belgi jahon andozalaridagi kodlash jadvali - ASCII (American Standard Code for Information Interchange) jadvali yordamida ikkilik belgilar ketma-ketligida ifodalanadi. A harfi-41. Agar

1-raqamni ustun desak, 2-raqamni satr desak, A harfi kelib chiqadi.

Turli asosli sanoq sistemalarida sonlar ketma-ketligi jadvali

10lik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
2 lik	0000	0001	0010	0011	0100	0101	0110	0111	1000	1001	1010	1011	1100	1101	1110	1111
8lik	0	1	2	3	4	5	6	7	10	11	12	13	14	15	16	17
16lik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F

ASCII KODLASH JADVALI

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
0		►		0	@	P	'	p	A	P	a	▒	┌	▯	p	È
1	☉	◄	!	1	A	Q	a	q	Б	С	б	▒	└	▯	с	Ё
2	☼	↑	“	2	B	R	b	r	В	Т	в	▒	└	▯	т	≥
3	♥		#	3	C	S	c	s	Г	У	г	└	└	▯	у	≤
4	♦	¶	\$	4	D	T	d	t	Д	Ф	д	└	—	└	ф	└
5	♣	§	%	5	E	U	e	u	Е	Х	е	└	└	└	х	└
6	♠	■	&	6	F	V	f	v	Ж	Ц	ж	└	└	└	ц	+
7		±	`	7	G	W	g	w	З	Ч	з	└	└	└	ч	≈
8		↑	(	8	H	X	h	x	И	Ш	и	└	└	└	ш	°
9		↓	)	9	I	Y	i	y	Й	Щ	й	└	└	└	щ	●
A		→	*	:	J	Z	j	z	К	Ъ	к	└	└	└	ъ	.
B	♂	←	+	;	K	[	k	{	Л	Ы	л	└	└	■	ы	√
C	♀		,	<	L	\	l		М	Ь	м	└	└	■	ь	№
D			-	=	M	]	m	}	Н	Э	н	└	=	■	э	²
E	♪		.	>	N	^	n	~	О	Ю	о	└	└	■	ю	■
F	☼		/	?	О	_	o	△	Π	Я	п	└	└	■	я	

Misol. ASCII kodidan foydalanib «ISTIQBOL» soʻzini ikkilik raqamida kodlang.

Yechish: ASCII kodlash jadvali 7-sinf informatika darsligida keltirilgan. Bu jadvaldan foydalanib quyidagilarni topamiz:

I – 01001001	S – 01010011	T – 01010100	Q – 01010001
B – 01000010	O – 01001111	L – 01001100	

Demak, ISTIQBOL soʻzining ASCII boʻyicha ikkilik kodi:

01001001 01010011 01010100 01001001 01010001 01000010 01001111 01001100.

Axborot miqdori va oʻlchash birliklari

Axborot ham , boshqa koʻpgina tushunchalar (masalan,vaqt,ish,haroratir xil darajadag,masofa va h.k) kabi oʻlchanadi. Ammo uning oʻlchov birligi siz bilan matematika yoki fizika kursida tanishgan oʻlchov birliklarimizdan farq qiladi.

